



G'AFUR G'ULOM HIKOYALARIDA SATIRA VA IJTIMOIIY MUAMMOLAR

Usmonov Ibrohim Alisher o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

email: usmonov8712@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19328565>

Annotatsiya: Mazkur maqolada G'afur G'ulom hikoyalaridagi satira tahlil qilinadi. Adibning "Chorasi ko'rildi", "Luqmon", "Elatiyada bir ovkabi hikoyalari misolida jamiyatdagi byurokratiya, jaholat, firibgarlik, savodsizlik va mas'uliyatsizlik kabi muammolar badiiy tasvir orqali yoritiladi. Maqolada yozuvchining satirik obraz yaratish usullari, jumladan, mubolag'a, grotesk, qochirim va so'z o'yinlaridan foydalanish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, G'afur G'ulom hikoyalarida kulgi vositasida ijtimoiy tanqidni ifodalash, oddiy xalq hayotini badiiy aks ettirish hamda hajv orqali muhim ijtimoiy masalalarni ochib berish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: satira, hajv, yumor, hikoya, ijtimoiy tanqid, badiiy obraz, savodsizlik.

XX asr o'zbek adabiyotida jamiyat hayotini badiiy aks ettirish, ijtimoiy muammolarni ochib berish va xalq turmushidagi illatlarni tanqid qilish muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonda satira va yumordan mohirona foydalangan adiblardan biri G'afur G'ulomdir. Yozuvchi o'z hikoyalarida oddiy xalq hayotini, ularning quvonch va tashvishlarini, jamiyatdagi turli kamchilik va illatlarni sodda, jonli hamda kulgili voqealar orqali tasvirlaydi. Adibning "Chorasi ko'rildi", "Luqmon", "Elatiyada bir ov", "Guvohlikka o'tgan ho'kiz" va "Shoshilinch telegramma" kabi hikoyalari o'zbek hikoyachiligida ijtimoiy hajvning yorqin namunalaridan hisoblanadi. G'afur G'ulom nasriy asarlarda beg'araz hazil-mutoyiba va qahramonlik, hayotbaxshlik, donishmandlik ruhini yanada kuchaytirgan. Adib hatto o'nlab felyetonlarini Nasriddin Afandi latifalari syujeti, shakli asosiga kurgan va shu yo'l bilan ularni hatto satirik hikoya darajasiga ko'tarib yuborgan. "Xotinga olib berilmagan kavsh", "Oyoq olishiga qaraydi", "Shudgorda quyruq..." singari asarlar fikrimizni dalillaydi. Shuning uchun G'afur G'ulomning kuldirib yig'latadigan va yig'latib kuldiradigan hajviy hikoya va qissalari el orasida shuhrat topdi ¹. Mazkur asarlarda yozuvchi jamiyatda uchraydigan sargardonlik, jaholat, firibgarlik, savodsizlik va mas'uliyatsizlik kabi muammolarni badiiy obrazlar orqali ochib beradi.

¹ Sitora Mamatkulova. G'AFUR G'ULOM ASARLARIDA OILAVIY HUQUQ MASALALARI. Yoshlar ovozi. Available at: <https://www.yoshlarovozi.uz/oz/news/gafur-gulom-asarlarida-oilaviy-huquq-masalalari>



Gʻ.Gʻulom satirik obraz yaratishda mubolagʻa, grotesk, qochirim va soʻz oʻyinlaridan unumli foydalangan. Shuni ham qayd qilib oʻtish lozimki, ikkala yozuvchi (S. Ahmad, Gʻ.Gʻulom) kulgini kuchaytirish va shu yoʻl bilan kitobxonga taʼsir qilish maqsadida badiiy tasvir vositasi – yumoristik mubolagʻani ishlatadilar².

Gʻafur Gʻulomning qanchalik mohir hajvchi ekanligini uning hikoyalari tahlil qilish orqali anglash mumkin. Adibning “Chorasi koʻrildi” hikoyasida davlat idoralaridagi rasmiyatchilik va beparvolik hajv ostiga olinadi ³. Asarda soliq idoralari xodimlarining eʼtiborsizligi sabab oddiy fuqaro – Ubay Zufarov asossiz ravishda soliqqa tortiladi. Uning arizasi yuqori idoraga yuborilganda “chorasi koʻrilsin” degan rezolyutsiya qoʻyiladi, biroq qishloq shoʻrosi xodimlari arizaning mazmunini oʻqimasdan, faqat shu rezolyutsiyani ijro etishga kirishadi. Natijada Ubayning uyida soliq uchun olinadigan buyumlar izlanadi. Aslida esa fuqaro notoʻgʻri soliqdan ozod etilishni soʻrab murojaat qilgan edi. Hikoyada tasvirlangan bu holat kulgili koʻrinsa-da, uning zamirida jiddiy ijtimoiy muammo – byurokratiya va mansabdor shaxslarning masʼuliyatsizligi yotadi. Muallif voqeani satirik ruhda tasvirlab, davlat idoralarida har bir ishga masʼuliyat bilan yondashish zarurligini taʼkidlaydi.

Adibning “Luqmon” hikoyasi esa jamiyatdagi jaholat muammosini ochib beradi. Hikoyada oʻzini “donishmand tabib” sifatida tanitgan Hubbi ibn Abdumalik obrazida firibgarlik va savodsizlik tanqid qilinadi. U xalq orasida “Luqmoni soniy” sifatida mashhur boʻlsa-da, aslida ilmiy bilimga ega boʻlmagan, odamlarni aldab kun kechiruvchi kimsadir. Hikoyada uning bemorlarga koʻrsatgan “davolash usullari”, jumladan, bemorning tomirini ipak ip orqali tekshirmoqchi boʻlishi yoki zanglagan nishtar bilan qon olish kabi voqealar orqali davr kishilarining naqadar sodda boʻlganini koʻrsatadi. Natijada bemor halok boʻladi va “donishmand” tabib jazoga tortiladi. Bu orqali yozuvchi jaholat va ilmsizlik inson hayoti uchun katta xavf tugʻdirishini badiiy tasvir vositasida ochib beradi.

Gʻafur Gʻulom hikoyalarida diniy niqob ortida yashiringan ikkiyuzlamachilik ham tanqid qilinadi. Buni yozuvchining “Elatiyada bir ov” hikoyasida yaqqol koʻrish mumkin. Asarda Shamsuddin eshon obrazi orqali oʻz manfaatini din niqobi ostida yashiradigan, xalqning sodda ishonchidan foydalanadigan shaxslar fosh etiladi. Eshon savodsiz boʻlsa-da, oʻzini taqvodor qilib koʻrsatadi va odamlar

² Shoira Ahmedova. Hayotbaxsh kulgi yaratish mahorati. (Gʻ. Gʻulom va Said Ahmas ijodi misolida). Gʻafur Gʻulom ijodida milliy va umuminsoniy gʻoyalar uygʻunligi mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiya. – T.: 2023. 5-b.

³ Gʻafur Gʻulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. — T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 324-326 b.





orasida katta obro' qozongan. Hikoya voqealari davomida uning asl qiyofasi ochiladi. Ayniqsa, chimildiqdagi kulminatsion epizod eshonning ochko'zligi va ikkiyuzlamachiligini kulgili tarzda fosh etadi. Muallif ushbu obraz orqali jamiyatdagi ko'r-ko'rona ishonch va jaholat muammosiga e'tibor qaratadi.


G'afur G'ulom qahramonlar ruhiy duyosi, niyati, ichki kechinmalarini ularning o'z hatti-harakati, nutqi, orzu-intilishlari orqali ko'rsatadi. Adib yuz bergan muayyan voqeaga personajlar munosabatini ifodalashda ularning hatti-harakatlariga ishora qiladi. Ularning aksariyati sodda va bechora kishilar bo'lib, o'zlarining insof, vijdon va diyonat kishisi ekani bilan e'tiborimizni tortadi. Zero, yozuvchi hamisha syujet va xarakterlar ziddiyatini hayotiy asoslaydi. O'zbekona hayot tarzidan olingan, milliy koloritni aks ettiradi. Ayrim hollarda, ajvni achchiq kulgiga aylantira oladi ⁴.

Umuman olganda, G'afur G'ulom hikoyalari o'zbek adabiyotida ijtimoiy hajvning yorqin namunalari hisoblanadi. Yozuvchi oddiy voqealar orqali jamiyatdagi muhim muammolarni ochib berishga muvaffaq bo'lgan. Uning asarlarida kulgi va satira vositasida jaholat, firibgarlik, savodsizlik hamda mas'uliyatsizlik kabi illatlar tanqid qilinadi. Shu bilan birga, yozuvchi oddiy xalq vakillarining adolatga intilishi, aql-zakovati va hayotiy tajribasini ham tasvirlaydi. Adibning hikoyalari sodda tili, jonli obrazlari va chuqur ijtimoiy mazmuni bilan bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sitara Mamatkulova. G'AFUR G'ULOM ASARLARIDA OILAVIY HUQUQ MASALALARI. Yoshlar ovozi. Available at: <https://www.yoshlarovozi.uz/oz/news/gafur-gulom-asarlarida-oilaviy-huquq-masalalari->
2. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. 352 bet.
3. Shoir Ahmadova. Hayotbaxsh kulgi yaratish mahorati. (G'. G'ulom va Said Ahmas ijodi misolida). G'afur G'ulom ijodida milliy va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiya. – T.: 2023. 272 b.
4. Sitara Mamatkulova. "O'lmas asarlar ijodkori G'afur G'ulom". Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi. 2023. 3-son. Available at: https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.in-academy.uz/index.php/yota/article/download/11584/8283&ved=2ahUKEwjstYPwoZWTAxXFnf0HHaqMCQwQFnoECBkQAQ&usg=AOvVaw1U7uDu7vzDy0fCZ_KqC3Ks

⁴ Sitara Mamatkulova. "O'lmas asarlar ijodkori G'afur G'ulom". Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi. 2023. 3-son. Available at: https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.in-academy.uz/index.php/yota/article/download/11584/8283&ved=2ahUKEwjstYPwoZWTAxXFnf0HHaqMCQwQFnoECBkQAQ&usg=AOvVaw1U7uDu7vzDy0fCZ_KqC3Ks





academy.uz/index.php/yota/article/download/11584/8283&ved=2ahUKEwjstYPwoZWTAxXFnf0HHaqMCQwQFnoECBkQAQ&usg=AOvVaw1U7uD7vzDy0fCZ_KqC3Ks

